NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

FARHOD MUSAJONOVNING «BO‘SH KELMA, ALIQULOV!» QISSASIDA QAHRAMON RUHIYATI VA XARAKTER EVOLYUTSIYASI

Madolimov Hasanboy
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0000-9357-0579
E-mail: madolimovhasanboy@gmail.com

Annotatsiya: *Annotatsiya Maqolada Farhod Musajonovning «Bo‘sh kelma, Aliqulov!» qissasida bosh qahramon Aliqulov ruhiyatining tasviri, xarakterining shakllanishi va evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor individual-psixologik qahramon modeli, ichki konflikt, psixologizm, ichki monolog, ruhiy dramatizm va ma’naviy tanlov masalalariga qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *qahramon, xarakter, xarakter evolyutsiyasi, psixologizm, ichki konflikt, ichki monolog, personaj portreti, ruhiy dramatizm.*

ПСИХОЛОГИЯ ГЕРОЯ И ЭВОЛЮЦИЯ ХАРАКТЕРА В ПОВЕСТИ ФАРХОДА МУСАЖОНОВА «НЕ СДАВАЙСЯ, АЛИКУЛОВ!»

Аннотация: Аннотация *В статье анализируются изображение психологии главного героя Аликулава, а также формирование и эволюция его характера в повести Фархода Мусажонова «Не сдавайся, Аликулав!». Особое внимание уделяется индивидуально-психологической модели героя, внутреннему конфликту, психологизму, внутреннему монологу, психологическому драматизму и проблеме нравственного выбора.*

Ключевые слова: *герой, характер, эволюция характера, психологизм, внутренний конфликт, внутренний монолог, портрет персонажа, психологический драматизм.*

THE PROTAGONIST’S PSYCHOLOGY AND CHARACTER EVOLUTION IN FARHOD MUSAJONOV’S NOVELLA «DON’T GIVE UP, ALIQULOV!»

Abstract: Abstract *This article analyzes the portrayal of the main character Aliqulov’s psychology, as well as the formation and evolution of his character, in Farhod Musajonov’s novella «Don’t Give Up, Aliqulov!» Particular attention is paid to the individual psychological model of the protagonist, internal conflict, psychologism, inner monologue, psychological dramatism, and the issue of moral choice.*

Keywords: *protagonist, character, character evolution, psychologism, internal conflict, inner monologue, character portrait, psychological dramatism.*

Kirish

Farhod Musajonovning «Bo‘sh kelma, Aliqulov!» qissasi yozuvchi ijodida insonning ma’naviy-ruhiy bardoshliligi, ichki kurashi hamda shaxsiy tanlov masalasini prioritet darajasiga qo‘ygan asarlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qissa adibning badiiy tafakkuridagi psixologik teranlik, xarakter yaratish mahorati va ichki dramatizmni namoyon etuvchi muhim namunadir. Asarda asosan inson qalbida kechayotgan murakkab ruhiy jarayonlar tasvirlanadi. Shu jihatdan mazkur qissa yozuvchi ijodining estetik yo‘nalishini belgilovchi asarlardan biri deyish mumkin.

Farhod Musajonovning «Bo‘sh kelma, Aliqulov!» qissasi o‘rta maktab yoshidagi bolalar hayoti haqida so‘zlovchi asar bo‘lib, syujet va kompozitsiya poetikasi muallifning bolalar dunyosini haqqoniy va psixologik jihatdan chuqur ochish usulini yaqqol namoyon etadi. Muallif syujetni bir kunlik oddiy voqealar ketma-ketligi asosida quradi, ammo kompozitsiya orqali qahramonning ichki dunyosi, oilaviy muammolari, maktab hayoti va mas’uliyat mavzularini keng yoritib beradi.

Fransuz adabiyotshunosi Gérard Genette narratologiya nazariyasida badiiy matnni tahlil qilishda hikoya qiluvchi, fokalizatsiya [7] va vaqt strukturalari masalalarini muhim deb hisoblaydi. Tadqiqotchining qarashicha, voqealarning kim tomonidan va qaysi nuqtayi nazardan hikoya qilinishi asarning poetik mohiyatini ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan biridir. «Bo‘sh kelma, Aliqulov!» qissasida voqealar bosh qahramon so‘zlari bilan hikoya qilinadi. Shu sababli asar

arxitektonikasida ichki fokalizatsiya ustuvorlik qiladi. Oʻquvchi voqelikni Aliqulovning koʻzi bilan koʻradi. «Chunki yozuvchi uchun oʻzining tilidan hikoya qilganligidan koʻra oʻz asari qahramoni tilidan hikoya qilinsa, oʻsha qahramonning nozik xilqatlarini oʻquvchining koʻnglida gavdalantira oladi, shuningdek oʻsha qahramonning atrofdagilar bilan munosabati yaqqol ochib beriladi» [3].

Adabiyotlar tahlili

«Badiiy xarakter masalasi adabiyotshunoslikning eng muhim nazariy muammolaridan biri boʻlib, u qadimgi davrlardan boshlab bugungi kungacha jahonva milliy adabiyotshunoslikning diqqat markazida boʻlib kelmoqda. Chunki har qandaybadiiy asarning gʻoyaviy-estetik qiymati, avvalo, unda yaratilgan xarakterlarning hayotiyligi, badiiy ishonarliligi va individual oʻziga xosligi bilan belgilanadi. Shu sababli xarakteryaratish tamoyillarini oʻrganish adabiyot nazariyasining asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida shakllangan. Xarakter tushunchasining nazariy asoslari ilk bor qadimgi yunon mutafakkirlaritomonidan izohlangan. Aristotelning «Poetika» asari xarakter nazariyasining fundamentalmanbasi hisoblanadi.» [1. 3685]

«XVIII-XIX asrlarda nemis klassik falsafasi vakillari badiiy xarakter masalasigayanginazariy yondashuvlarni taklif etdilar. Immanuil Kant estetik hukm va badiiy tafakkur masalalarini tahlil qilib, san'atning insonning ichki dunyosini ifodalashdagi imkoniyatlariniasoslab berdi. Georg Vilgelm Fridrix Gegel esa «Estetika» asarida badiiy xarakter tarixiy voqelik va ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bogʻliq ekanligini ta'kidladi. Gegel nazariyasiga koʻra, xarakter individual shaxsning ichki mohiyatini aks ettirish bilan birga, muayyan tarixiy davrning ijtimoiy ziddiyatlarini ham oʻzida mujassamlashtiradi.» [1. 3687]

XX asrda Gyorg Lukach, Edward Morgan Forster, Tsvetan Todorov, Roland Barthes Zigmund Freyd va Karl Gustav Yung singari tadqiqotchilar oʻz asarlarida xarakterni turli jihatdan yoritdilar.

Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Qozoqboy Yoʻldoshev va Dilmurod Quronov kabi oʻzbek tadqiqotchilari oʻz ilmiy nazariyalari bilan badiiy xarakterga doir ma'lumotlarni yanada boyitishdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslik va narratologiyaning zamonaviy analitik metodlaridan foydalanildi:

Narratologik va fokalizatsion tahlil: G.Genettening fokalizatsiya nazariyasiga tayanib, asarda ichki fokalizatsiyaning xarakter tasviridagi oʻrni va badiiy funksiyasi oʻrganildi;

Psixologik-tekstual tahlil: Bosh qahramonning ichki kechinmalari, nutqiy xususiyatlari, ichki monolog va ong oqimi unsurlari matn sathida tahlil qilindi;

Konfliktologik va sistemli-strukturaviy tahlil: Asardagi ichki va tashqi ziddiyatlar hamda ikkinchi darajali obrazlar (Shoqayum, Ra'no, Nodira, Nasiba opa) va bosh qahramon oʻrtasidagi dialogik va kontrast munosabatlar tizimi yoritildi.

Natijalar va ularning tahlili

Syujetning asosiy xususiyati ichki ziddiyatning ustuvorligida koʻrinadi. Asarda dramatizm qahramonning oʻz vijdoni, e'tiqodi va hayotiy pozitsiyasi bilan yuzlashuvi mobaynidan kelib chiqadi. Shu mazmunda qissa syujeti ruhiy evolyutsiya modeli sifatida koʻzga tashlanadi. Masalan, asar boshida qahramon maktabga borishdan oldin juda xotirjam holda tasvirlangan, ya'ni mas'uliyatni unchalik ham his etmaydi. Har bir epizod Aliqulovning ruhan oʻsish bosqichini koʻrsatadi hamda umumiy dramatik salmogʻini oshiradi. E'tiborlisi, syujet kundalik hayotdan olingan «kichik voqealar» orqali katta ma'naviy muammolarni olib chiqish, ya'ni oʻqishdagi qoloqlik, oilaviy mas'uliyat, doʻstlik, mehnatsevarlik va chidam bilan olgʻa intilishni yoritib berishdan iborat.

Muallif asarda ekspozitsiyani an'anaviy batafsil tavsif shaklida bermagan, aksincha uni vaziyat orqali beradi. Qahramon tayyor ruhiy holatda emas, balki muayyan ichki bosim va ziddiyat ichida koʻrsatiladi. Bular orqali qahramonning portreti yaratiladi. Misol uchun:

«Ertalab turib balkonga chiqsam, osmon tip-tiniq, bittayam bulut yoʻq, gʻir-gʻir shabada, kun iliq. Havoni hidlasang xuddi bahorning isi kelayotgandek. Mayli, tezroq bahor kelsin, qish jonga tegdi. Bu yil oʻzi qish qishga ham oʻxshamadi. Besh-olti marta hoʻl qor yogʻdi, keyin nuqul yomgʻir, aytarli sovuq ham boʻlmadi. Men bunaqa qishni yomon koʻraman. Pagʻa-pagʻa qor yogʻib, sovuq boʻlsa, maza qilib chana, konki uchsang, ana u qish! Shilp-shilp yomgʻirli qish kimga kerak. Qish shunaqa lanj kelsa odam bahorni ayniqsa oshiqib kutar ekan. Bugun yigirma oltinchi fevral boʻlsa, demak, qishning keti uzilay deb qolibdi. Yana uch kundan keyin bahor.

– Hoy, namuncha imirsilaysan, ertalabdan meni jovratmay boʻla qolsang-chi tezroq! – ichkaridan oyimning ovozlari eshitilib xayolimni boʻldi.

– Hozir, – deb oyimni tinchitishga harakat qildim. Lekin bari bir uyga kirishga shoshilmadim.

– Kallai saharlab turib balkonda nima qilyapsan?! – yana oyimlarning ovozlari eshitildi. Men kitoblarda yoziladigandek, «Musaffo havodan toʻyib-toʻyib shimiryapman», dedim, lekin faqat oʻzim eshitadigan qilib aytdim. Gapim oʻzimga ta'sir qilib iljayib qoʻydim.

– Tezroq qimirla, boʻlmasa maktabingga kech qolasan. Buyoqda hali ukangni bogʻchaga tashlab oʻtishing kerak, – oyimning ovozlari borgan sari serzarda va balandroq chiqardi. Ovozlari mayli-yu, ammo maktabni esga solib ta'bimni xira qilganlari chatoq boʻldi» [4, 114].

Keltirilgan ta'rifdan personaj portreti oddiy «tepsa tebranmas» shaxs sifatida gavdalanmaydi. Garchi maktabga borishni xushlamasa ham, uning nutqida oʻziga xos intiluvchanlik sezilib turadi. Uning xarakteri voqealar ketma-ketligida ishonchsiz ravishda keskin oʻzgarib qolmasligi uchun personaj dunyoqarashi orqali «tizgin» asar boshidayoq mahkam tutilgan.

«Boʻsh kelma, Aliqulov!» qissasining badiiy qimmatini belgilovchi asosiy omillardan biri undagi konflikt tizimining oʻziga xosligidadir:

«Badiiy asarlarda insonning ichki dunyosi, his-tuygʻulari, orzu-intilishlari hamda jamiyat bilan boʻlgan munosabatlari tasvirlanadi. Ushbu jarayonda konflikt, ya'ni ziddiyat muhim oʻrin egallaydi. Chunki har qanday asarning mazmuni va rivoji koʻp jihatdan undagi qarama-qarshiliklarga bogʻliq boʻladi. Konflikt orqali asarda harakat yuzaga keladi, voqealar ketma-ketligi shakllanadi va qahramonlarning asl mohiyati ochiladi» [5, 261].

Ushbu asarda konflikt shaxsning ichki dunyosida kechuvchi ruhiy ziddiyat sifatida namoyon boʻladi. Personaj onasi xarakterini baholashi, otasiga bergan ta'rifi, sinfdoshlari va oʻqituvchilariga boʻlgan munosabatini tahlil qilar ekan, uning ruhiy rivojiga turtki boʻluvchi omillar izchillik bilan ortib borishini koʻrish mumkin. Shu tomondan qissa dramatizmi tashqi toqnashuvlardan koʻra koʻproq ichki kurash intensivligida koʻrinadi.

Asardagi konfliktni tashqi va ichki qatlamda kuzatish mumkin. Tashqi konflikt ijtimoiy muhit, vaziyat va sharoit bilan bogʻliq boʻlsa-da, u asarda yetakchilik qilmaydi. Masalan, Aliqulovning sinfdoshi Shoqayum bilan janjallashib qolishi sahnasini olib koʻrsak: Aliqulov uning maqtanchoqligi, oʻrni kelganda shallaqi boʻlib qolishini bilardi. Shuning uchun bu konflikt undagi oʻzgarishga deyarli ta'sir etmaydi. Muallif asosiy e'tiborni qahramonning oʻzi bilan kurashishiga qaratadi.

Aliqulovning ichki ziddiyati ma'naviy prinsiplariga sodiq qolish va taslim boʻlish oʻrtasidagi kurash bilan belgilanadi. Ichki konflikt asarning barcha syujet bosqichlarida saqlangan holda bosqichma-bosqich chuqurlashadi. Dastlab u shubha shaklida namoyon boʻlsa, keyinchalik iztirob va ruhiy zoriqish darajasiga yetadi. Aliqulovning oʻqituvchisi Nasiba opaga hurmati oshib borgan sayin oʻz sustkashligi oldida oʻzini oqlashi ham ortadi. Shu bilan birlikda oʻziga nisbatan tanqidiy qarashi ham kuchayib boradi. Kulminatsion nuqta esa qahramonning ichki qarori shakllangan lahzada yuzaga keladi. Bu qaror ma'naviy pozitsiyaning mustahkamlanishi bilan bogʻliq. U oʻzini «tergov» qilib, muhokama qiladi hamda «hukm chiqaradi». Shu ma'noda konflikt ruhiy quvvat sifatida keskin voqealar bilan berilmagan.

Asarda bola yuragining nozik kechinmalari realistik tasvirlangan. Shu sababli asar dramatizmi samimiy va ta'sirchan chiqqan. Masalan, Aliqulovning ukasi Solining tashlab ketilishdan qoʻrqishi asarga chuqur dramatik mazmun bagʻishlaydi. Soli shunday deydi: «Adamlarga oʻxshab oyim ham, sen ham tashlab ketasizlar deb qoʻrqdim» [4, 118]. Bu oddiy bola gapidek koʻrinsa ham unda oilaviy ajralishning ogʻriqli iztirobi seziladi. Shu oʻrinda dramatizm tashqi voqeadan emas, bolaning sodda soʻzlari ortidagi ogʻriqli haqiqatdan vujudga kelishini koʻrish mumkin.

Ikkinchi darajali obrazlar orqali qissada ijtimoiy muhitning badiiy tasviri yaratiladi. Bu muhit konkret siyosiy yoki ijtimoiy shiorlar bilan emas, balki insoniy munosabatlar tizimi orqali ifodalanadi. Personajlar oʻrtasidagi munosabatlar qahramonning ma'naviy sinov oldidagi holatini yanada teranlashtiradi. Masalan, Nasiba opa darsidan butun sinf kinoga qochgan paytdagi vaziyatda Shoqayum boshqalardan ajralib qoladi va jazoni talab qiladi: «Nima, hech qanday chora koʻrmaysizmi? Butun sinf darsingizdan qochib ketsa ham indamaysizmi? Xuddi hech narsa boʻlmagandek filmning muhokamasini oʻtkazasizmi?» [4, 134]. Oʻquvchi va oʻqituvchi oʻrtasidagi bu tortishuvni bosh qahramon tahlil qilar ekan, oʻqituvchisi Nasiba opaning tarbiya borasida aytgan soʻzlariga oʻzi ham amalda rioya qilishiga guvoh boʻladi. Natijada, oʻqituvchisiga boʻlgan ishonchi yanada mustahkamlanadi. Bu ishonch bosh obrazning oʻz ishiga mas'uliyat bilan yondashishiga asos boʻlib xizmat qilishini oʻqituvchi Nasiba opa bilan uning oʻrtasidagi suhbat bilan ifodalab berilgan.

Aliqulovning sinfdoshlari Shoqayum, Ra'no va Nodira obrazlari bilan uning xarakterining turli qirralarini koʻrsatishda oʻziga xos kontrast yaratilgan. Masalan, Shoqayum – shoshqaloq va manman, Ra'no – shartaki, Nodira esa kibrli. Bu xarakter unsurlari Aliqulovda boʻlmagani uchun uning portreti oʻquvchiga yanada yaqqol koʻrinadi. Shu orqali Aliqulov obrazi boshqa personajlar bilan munosabatlar tizimida shakllangan dialogik xarakter sifatida gavdalanadi. Mazkur obrazlarga muhitning umumlashtirilgan belgilari sifatida qarash mumkin. Ular orqali oʻquvchi qahramon yashayotgan ijtimoiy-psixologik makonni tasavvur etadi. Bu makon Aliqulovning psixologik rivoji uchun fon vazifasini bajaradi. Natijada bosh obraz va muhit oʻrtasidagi murakkab bogʻliqlik poetik tizimning muhim unsurlaridan biriga aylanadi.

Ikkinchi darajali obrazlar yordamida bolaning psixologik portreti, oilaviy muammolar, maktab muhiti va tarbiyaviy masalalar realistik tarzda tasvirlanadi. Badiiylik jihatidan bu obrazlar realistik-psixologik nasr uslubida yozilgan boʻlib, ichki monolog, retrospeksiya, dialog va ramziy taqqoslashlar koʻmagida bosh qahramonning «yalqovlik»dan mas'uliyat tomon oʻsishini kuchaytiradi.

«Epik rivoyada ruhiyat tasvirining kuchayishi, boshqacha aytganda, voqelikning xarakterlar ruhiyatidagi tahliliy tasviri orqali aks ettirilishi hozirgi o‘zbek nasrida psixologizmning tobora rivojlanib borayotganidan darak beradi» [2, 158].

Muallif Aliqulovning ruhiy olamini tashqi voqealardan ko‘ra ko‘proq uning ichki reaksiyalari, o‘zi bilan suhbatlari va ong oqimi vositasida yoritadi. Shu tariqa personaj xarakteri psixologik jihatdan tabiiy va ishonarli chiqadi. Asarda ichki monologning turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Jumladan:

«Men kitoblarda yoziladigandek, ’Musaffo havodan to‘yib-to‘yib shimiryapman’ [4, 114], dedim, lekin faqat o‘zim eshitadigan qilib aytdim» tarzidagi mulohaza qahramonning o‘ziga murojaati va ichki ironiyasini ifodalab bergan. Bu o‘rinda personajning fikrlash jarayoni tashqi dialogsiz, ichki nutq orqali berilyapti.

«Qani endi iloji bo‘lsa Solini bog‘chaga hech ham olib bormas edim, o‘zim bilan uyda o‘tiraverardi» [4, 117] jumlasi orqali qahramonning ukasiga bo‘lgan mehri va hissiy bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan.

«Solini ko‘rib rahmim kelganidan yig‘lab yuboray dedim» [4, 117] tarzidagi tasvirda esa ruhiy larza hamda emotsional holatning kuchli psixologik ifodasini ko‘rish mumkin.

Qahramonning qarashlari va ruhiy ziddiyatlari ham psixologizmni yuzaga chiqaradi. Masalan, «Menku hech ham ishonmayman bunga, nimaga deganda adamlar yaxshilar» [4, 118] degan ichki mulohaza orqali uning tashqi voqelik bilan ichki ishonchi o‘rtasidagi tafovut ochiladi. Shoqayum haqidagi «Shoqayum shunaqa, indamasa juda haddidan oshib ketadi» [4, 120] kabi fikrlar esa bosh qahramon subyektiv munosabati sifatida namoyon bo‘ladi.

Qahramon ruhiy bosim ostida qolgan onlarda psixologik tasvir yanada kuchayadi. «Eh, shunaqa daqiqalarning qanchalik azob ekanini bilsangiz edi» [4, 120] jumlasi orqali uyat, siqilish va ichki tanglik holati tasvirlanadi. Shuningdek, «Jumlani qarang. Shunaqayam mujmal, betamiz bo‘ladimi?» [4, 127] kabi ichki munosabatlar qahramon tafakkurining tabiiy oqimini aks ettiradi. Bu tasvirlarda muallif bolalar psixologiyasini ichki monolog vositasida ishonarli ko‘rsatib berishga erishgan.

Xulosa

Farhod Musajonovning «Bo‘sh kelma, Aliqulov!» qissasining g‘oyaviy-estetik konsepsiyasi insonning ma’naviy sobitligi va ichki ziddiyatlar masalasiga asoslanadi. Qahramon tajribasi umumlashgan ma’naviy prinsip darajasiga ko‘tariladi. Natijada, asar insonning sinovli hayot sharoitida ma’naviy barqarorlikni saqlab qolish zaruratini ifodalovchi yaxlit badiiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, muallif asarda ichki fokalizatsiya, realistik-psixologik monolog va dialogik xarakter yaratish usullaridan unumli foydalanib, bolalar ruhiyatidagi ma’naviy-evolyutsion o‘sish jarayonini yuksak mahorat bilan ochib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djumaniyazova N. Jahon hamda o‘zbek adabiyotshunosligida xarakter yaratishning tamoyillari. Ilm-fan xabarnomasi, Science bulletin, Вестник науки issn: 3030-3931 Volume 14, issue 01, Iyun2026

2. Isayeva Sh. Badiiy ifoda va ruhiyat tasviri sintezi. Badiiy matn taqlili va talqin muammolari. N.M.Mallayev tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012

3. Jo‘rayeva M. Matn va uslub munosabati. badiiy nutq uslubi. Iqro jurnali // 2023. VOL – 1 ,ISSUE – 2. https://wordlyknowledge.uz/

4. Musajonov F. Bo‘sh kelma, Aliqulov! (Qissalar to‘plami). Toshkent: «Sharq», 2005

5. Normuminova N., Chorshambiyeva D. Adabiyotda konflikt (ziddiyat) tushunchasi. vol. 6 no. 2 (2026): Ilmiy tadqiqotlar va yangi olam. 261-bet https://journalss.org/index.php/ito/article/view/28324

6. https://wortwuchs.net/fokalisierung/#google_vignette

References

1. Baxtin M.M. Voprosi literaturi i estetiki. M.: Xudojestvennaya literatura, 1975

2. Quronov D. Talqin imkoniyatlari. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015

3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013

4. Quronov, D. Cho‘lpon nasri poetikasi / Mas’ul muh. O.Sharafiddinov, U.Normatov. – T.: «Sharq», 2004

5. Radjapova F. Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelizm (Nazar Eshonqul va Ulug‘bek Hamdam ijodi misolida) Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2018

6. Rasulova U. XX asr o‘zbek qissachiligi (poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari) filolog. fan doktori (DSc) dissertasiyasi. – Toshkent, 2018

7. Rustamova M. Istiqlol davri o‘zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari: Filol.fan. nomzodi dis. – Toshkent, 2005

8. Umurzoqov R. XX asr o‘zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Fil.fan.b. falsaf. doktori (PhD) dissert. avtoreferati. – Toshkent, 2021

9. Xoldarov D. Hozirgi o‘zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo‘tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida). Fil.fan.b. falsaf. doktori (PhD) dissert. avtoreferati. – Toshkent, 2018

10. Xolmurodov A. O‘zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari (XX asr so‘nggi choragi). Fil.f.doktori dissert. avtoref. – Toshkent, 2008

11. Eshniyazova A. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligi va Xurshid Do‘stmuhammad ijodining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol. fan. falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020

12. https://internationalconf.org/index.php/usa/article/download/740/500